

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK  
O'QITUVCHILARNING KASBIY-AXLOQIY MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI**

**Sultonov Sherzod Elmuratovich**

*Qo'qon DU tayanch doktornati*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik odob-axloq asoslarini bilishning kasbiy-shaxsiy va ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini chuqur tushunish taklif etiladi, odob-axloqqa doiristak, qiziqish, xohish va axloqiy-pedagogik bilimlarni egallashga ehtiyoj paydo bo'ladi, motiv faollashadi.*

**Kalit so'zlar.** *Kompetensiyaviy yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy-axloqiy madaniyat, pedagogik zaruriyat, motiv, pedagogik odob-axloqni o'zlashtirish jarayoni.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ  
НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА**

**Султонов Шерзод Эльмуратович**

*Базовый докторант Кокандского государственного университета*

**Аннотация.** *В статье излагаются размышления о педагогической необходимости развития профессионально-этической культуры будущих учителей на основе компетентностного подхода. Будущим учителям предлагается глубоко осознать профессионально-личностную и социально-педагогическую значимость знания основ педагогической этики, появляется интерес к этике, желание и потребность в приобретении нравственно-педагогических знаний, активизируется мотивация.*

**Ключевые слова:** *Компетентностный подход, будущий учитель, профессионально-этическая культура, педагогическая потребность, мотивация, процесс освоения педагогической этики.*

**PEDAGOGICAL NECESSITY OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL-  
ETHICAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF A  
COMPETENTIAL APPROACH**

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

**Sultonov Sherzod Elmuratovich**

*Kokand State University Basic Doctoral Student*

**Annotation.** *This article presents some thoughts on the pedagogical necessity of developing the professional-ethical culture of future teachers on the basis of a competency-based approach. Future teachers are invited to deeply understand the professional-personal and socio-pedagogical significance of knowing the basics of pedagogical ethics, interest in ethics, desire and the need to acquire moral and pedagogical knowledge appear, and motivation is activated.*

**Keywords.** *Competency approach, future teacher, professional-ethical culture, pedagogical necessity, motivation, the process of mastering pedagogical ethics.*

“Pedagogik axloq” auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar dasturi quyidagi talablar asosida tuzildi: ta’limning zamonaviy-metodologik yangi yo‘nalishlari, ularning qadriyatlari; ijtimoiy-pedagogik, tarixiy-pedagogik va didaktik; nazariy va amaliy-kommunikativ; psixologik, psixologik-pedagogik; mantiqiy-pedagogik; nazariy va amaliy-pedagogik; axloqiy-pedagogik va ma’naviy; ijtimoiy-faol, o‘zini barkamollikka etaklash; kasbiy-pedagogik, perspektiv-kasbiy-prognozlanadigan talablarni nazarda tutgan holda hamda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar imkoniyatlari, xususiyatlari va o‘ziga xos tomonlaridan imkon qadar keng foydalangan holda tuziladi.

Dastur maqsadini aniq belgilab olish: pedagogik odob-axloqni o‘zlashtirish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy-pedagogik madaniyatini rivojlantirish.

Dasturda bo‘lajak o‘qituvchilarning yuksak odob bilan yo‘g‘rilgan kasbiy-axloqiy madaniyatiga urg‘u beriladi, shu jumladan, bo‘lajak o‘quv-tarbiya jarayonida, nazarda tutilgan kasbiy-pedagogik sharoitlarda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga pedagogik odob-axloq asoslarini bilishning kasbiy-shaxsiy va ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini chuqur tushunish taklif etiladi, odob-axloqqa doir istak, qiziqish, xohish va axloqiy-pedagogik bilimlarni egallashga ehtiyoj paydo bo‘ladi, motiv faollashadi. Bu axloqiy-pedagogik va axloqiy tushuncha va kategoriyalarni, pedagogik odob-axloqning nazariy asoslarini, axloqiy-pedagogik va odob-axloq madaniyatini, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash shartlarini o‘zlashtirishga qiziqish paydo bo‘lishiga hamda o‘quv-tarbiya va ijtimoiy-pedagogik voqelikka yaqinlashtirilgan ma’naviy-axloqiy pedagogik muloqot amaliyotini qiziqqan holda o‘zlashtirishga sabab bo‘ladi. Bunda muloqotning insoniylik-axloqiy omiliga, odob-axloqning asl ma’nosini maqsad qilib olgan holda etika va estetika birligini tushunish, shuningdek, gumanizm, ma’naviyat va odob-axloqqa e’tibor kuchaytiriladi. Asl odob-axloq – bu uning estetikasi, ezgulik va go‘zallik ekanligiga urg‘u beriladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga ular tanlagan bo‘lajak faoliyatning kasbiy-shaxsiy ahamiyatini tushunish, odob-axloq tushunchalari va kategoriyalarini o‘zlashtirish,

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

pedagogik munosabat tizimida odob-axloq qadriyatlarini anglash taklif etiladi. Talabalar adekvat tarixiy-pedagogik va nazariy bilimlar oladilar, ularning kamol topishi tashkillashtiriladi. Axloqiy ong, ma'naviy-axloqiy mulohaza, tushunib etish – anglash, keyin – bo'lajak kasbiy-pedagogik muloqotida ma'naviy-axloqiy yo'nalish (talab qilinadigan texnologik va texnik darajada), keyin - nazariy-amaliy mashg'ulotlar va praktikumlarda "real" pedagogik muloqot me'yorlari va qoidalarini amaliy o'zlashtirish, ularni takomillashtirish. Axloqiy-pedagogik madaniyat borasida o'zlashtirilganlarni pedagogik odob-axloqni o'zlashtirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va amalga oshirish zaruriy hisoblanadi.

Tarbiyalanuvchilarga professional-pedagogik ma'naviy-axloqiy ta'sir o'tkazishda nutq madaniyati (talaffuz, ohang, orfoepiya), to'g'ri nafas olish kabi texnik-pedagogik omillar muhim ahamiyatga ega. Ovozini chiroyli chiqarish, mazmundor so'z, o'z ovozini boshqarish, yuz ifodasini boshqarish, pauza ushlashni bilish, gavda holati, imo-ishora (turli nozik holatlarda, eng asosiysi, hammasi tabiiy, me'yorida, odob doirasida va chiroyli bo'lsin).

Bundan kelib chiqadiki – odob-axloq madaniyati – bu:uning motivatsiyasi; pozitsiyasi; odob-axloq tushunchalarini bilishi; insoniylik odob nuqtai nazaridan oqilona optimizm; o'zini tuta bilishi; emotsional vazminlik; yuksak odob-axloq darajasidagi insonparvarlik; odob-axloq printsiplari, e'tiqod, fikrlash (o'ziniki, xalq pedagogikasidan, dindan olingan); o'quvchilarga muhabbat; jamoada ishlash qobiliyati va xohishi; tolerantlik, og'ir-bosiqlik, empatiya, sabr-toqat; odoblilik va odob; samimiy insoniy fazilatlar va tuyg'ular – qalb kengligi, kirishimlilik (unga ehtiyoj), adolat, diqqat (yosh suhbatdoshga); ishonarli so'zlash; ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar; ma'naviy-axloqiy barkamollikka intilish; o'ziga tanqidiy yondashish, o'zining ma'naviy-axloqiy qiyofasiga baho berishi.

Quyidagilarni odob-axloq madaniyatining asosiy mezonlari sifatida ko'rsatamiz:

I. Ta'sirchan-ijobiy va optimistik kayfiyat – me'yorida, og'ir-bosiq, aniq maqsad sari va oqilona.

II. O'zining (yoki boshqa manbadan olingan) ma'naviy-axloqiy – kontseptsiyalari, printsiplari, e'tiqodi, fikr-mulohazalari

III. Yuksak ma'naviy-axloqiy darajada ijtimoiy-kommunikativ faoliyat olib borishga ehtiyoj.

IV. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishi, ayniqsa insoniylik, samimiylik, mehribonlik; o'zini tartibga soladigan va safarbar etadigan; ijtimoiy, jamoaviy, kommunikativ; axloqiy-tarbiyaviy fazilatlarining; o'zini o'zi = kuzatish – tushunish – o'rganish – tahlil – baholash – tavsif berish (o'z odob-axloq madaniyatiga) va keyin o'ziga baho berish.